

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-2>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

ILHOMJONOVA Dilrabo Ilhomjonovna*Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti
magistranti*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10624726>

MUSIQIY TA'LIM-TARBIYA BERISHDA INKLYUZIV YONDOSHUV

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida sog'lom bolalar bilan bir vaqtda nuqsonli bolalarga musiqiy mashg'ulotlarni bajarish jarayonida ularning nutqida nuqsoni bor bolalarni turli musiqiy o'yinlar orqali sog'lomlashtirish masalalari atroflicha yoritilgan.

Shuningdek, musiqiy ta'lim tarbiya berishning o'ziga xos metodlaridan maqsadli foydalangan holda nuqsonli bolalarning ijtimoiy muhitga faol ishtirokini ta'minlashga erishish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, metod, nuqsonli bolalar, tuzatish, yaxshilash, inklyuziv ta'lim, musiqa, cholg'u sozi, qo'shiq kuylash, o'yin.

ИНКЛЮЗИВНЫЙ ПОДХОД К МУЗЫКАЛЬНОМУ ВОСПИТАНИЮ И ОБРАЗОВАНИЮ

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно освещены вопросы улучшения здоровья детей с дефектами речи в процессе занятий музыкой детей с ограниченными возможностями здоровья одновременно со здоровыми детьми в дошкольных образовательных организациях.

Кроме того, выдвинут ряд предложений и рекомендаций по обеспечению активного участия детей ограниченными возможностями в социальной среде с целенаправленным использованием конкретных методов музыкального воспитания.

Ключевые слова: Дошкольное образование, метод, дети с ограниченными возможностями здоровья, улучшение, исправление, инклюзивное обучение, музыка, музыкальный инструмент, пение песен, игра.

AN INCLUSIVE APPROACH TO MUSICAL EDUCATION

ANNOTATION

In this article, the issues of correcting speech defects among healthy as well as disabled children are covered in detail. The article mainly focuses on the process of conducting music lessons at preschool age and correcting speech defects through various musical activities.

In addition, a few recommendations have been proposed to ensure an active participation of disabled children in the social environment by using specific methods and techniques in music education.

Key words: preschool education, methods, disabled children, correction, improvement, inclusive education, music, musical instrument, singing, activity.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy muhitni qo‘llab quvvatlash va ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish uchun ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli farmoni hamda 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-sonli Farmonlariga muvofiq, bir qator yo‘l xaritalari va tizim mas‘ullari uchun vazifalar belgilab berildi. Bu say‘-harakatlar maktabgacha va maktab ta‘limida o‘quv-tarbiya jarayonlarini yuksak darajaga olib chiqish, bolajonlarimizni kelajagimizning munosib vorislari qilib tarbiyalashga xizmat qilishiga qaratilgan, albatta.

Biz bilamizki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida olti yoshgacha bo‘lgan bolajonlar bilan tarbiyaviy jarayonlar amalga oshirilishi bilan bir vaqtda, ularni maktabga tayyorlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish uchun turli yondoshuvlar amalga oshiriladi. Bunday jarayonlarda sog‘lom bolalar bilan bir vaqtda turli nuqsonli bolalar ham ishtirok etishini inobatga olish juda zarur.

Nuqsonli bolalar deb, belgilangan tartibda nogiron deb tan olinmagan, lekin jismoniy yoki aqliy rivojlanishida vaqtincha yoki doimiy nuqsonlarga ega bo‘lgan shaxslarga aytiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bu turdagi bolalar bilan ishlash va ularni sog‘lom bolalar bilan bir vaqtda amaliy jarayonlarga jalb etish inklyuziv yondashuv hisoblanadi.

“Inklyuziv ta‘lim bu – ta‘lim va tarbiyaning shunday turiki, unda barcha bolalar jismoniy, psixologik, aqliy darajasi va turli boshqa qobiliyatidan qat‘iy nazar bir umumiy o‘quv tizimida boshqa mahalliy nuqsonsiz tengdoshlari bilan bir maktabda ta‘lim olishidir. Maktab ham ularga nisbatan maxsus o‘quv rejalari kerakligini hisobga olgan holda ular uchun zarur mutaxassis (logoped, psixolog, surdopedagog, pedagog) lar bilan ta‘minlashi kerak” [2].

Pedagog olima T.B.Oganyanning fikricha inklyuziv ta‘lim quyidagi prinsiplarda namoyon bo‘ladi, ular:

- a) insonning qadr-qimmatini uning qobiliyati va erishgan yutuqlaridan iborat emas;
- b) har bir inson his qilish va fikrlash huquqiga ega;
- s) har bir inson muloqot qilish va eshitish-tinglash huquqiga ega;
- d) barcha insonlar bir-biri bilan muloqotga moyil;
- y) haqiqiy ta‘lim faqat real munosabatlar kontekstida amalga oshishi mumkin;
- j) barcha bolalar tengdoshlari yoki do‘stlarining qo‘llab quvvatlashi va ko‘magiga moyil;
- i) barcha o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatga tezroq erishish yo‘li qila olmaydigan narsadan ko‘ra, nima qila olishi haqida ko‘proq tashvishlanishidir;
- f) xilma-xillik inson hayotining barcha jabhalarini yaxshilaydi” [3, B.73].

Yuqoridagilarga asoslanib o'quv-amaliy tajribalarda quyidagi holatlarga duch kelindi:

- Ba'zi bolalar boshqalarga nisbatan yaxshiroq yutuqqa erishadi. *Lekin bu bilan biz, qolgan bolalarning qadr-qiyamatini past baholamasligimiz lozim bo'ladi.*

- Har bir inson o'zining fizik holatidan qat'iy nazar his tuyg'ularini gapirishga haqli. *Masalan, nuqsoni bor bolani fikrini, his qilayotgan tuyg'ularini inkor qilmasdan eshitishimiz uning uchun juda muhim sanaladi, bu bola bundan xursand bo'ladi.*

- Insonlar yaqinlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj. *Shunday ekan, biz ularga dalda berishimiz va o'rni kelganda yaqindan ko'mak ko'rsatishimiz lozim.* Shunday ekan, biz bunday bolalarni o'zlarini hohlagan tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishlari uchun sharoit yaratishimiz kerak. Ammo ko'pchilik bir xillikka o'rganib qolgan. Lekin hayotda bir ishni turli xil usullarda qilish, hayotimizga yorqinlik, quvonch olib kelishini unutmashimiz kerak.

Biz bilamizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ta'limga tayyorlash turli o'yin vositalarida amalga oshiriladi. Bunda jamoa bo'lib ishlash juda samarali kechadi. Biroq, jamoa bo'lib ishlashda bolaning har bir tana a'zosining o'rni muhimki, bunda bola o'zini jamoda faol ishtirok etayotganligini his qilishidadir. Afsuski, nuqsonli bola (gapirish, ko'rish, yurish va h.k.) bunda o'zini erkin his qila olmaydi, natijada jamodan uzilib qolish xavfi ustivorlik qiladi. Shunday jarayonlarda nuqsonli bolalarni ham jamoada ishlashga o'rgatishimiz kerak. Albatta, nuqsonli va sog'lom bolalar bilan bir vaqtda mashg'ulotlarga jalb qilinsa, nuqsonli bolalar o'zlarini yomon his qilishi tabiiy hol. Shu sababli sog'lom va nuqsonli bolalarni bir-biridan ajratmasdan individual sinchkovlik bilan yondoshgan holda faoliyatni yo'lga qo'yish tarbiyachi-pedagogdan talab etiladi. Bunda, ularning fizik holati (nuqsoni)dan qat'iy nazar, bolaga nuqsonli a'zosini eslatmasdan, go'yoki sog'lomdek qarash hamda ta'lim berish jarayonida ayrim kamchilik va xatolarga ko'z yumgan holda, uning nuqsonini emas, balki imkon qadar bolaning qobiliyati nauqtai nazaridan baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nuqsonli bolalarning o'yin va turli ko'rinishdagi harakatli jarayonlarga jalb etish uchun yuqorida qayd etilgan yondoshuv prinsiyalariga amaliyotdan kelib chiqib quyidagicha qo'shimcha amaliy vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Barcha bolalar tengdoshlari bilan muloqotlashishga haqli;
2. Nuqsonli bolalar muavjud jamoaning har bir a'zosi faol qatnashuviga erishuv;
3. Umumta'lim yoki maktabgacha ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarni ajratib turuvchi alohida sinf xonalari bo'lishi kerak emas (albatta uning nuqsonli toifasini inobatga olgan holda);
4. Har bir ta'lim oluvchining haq-huquqlari bir xil bo'lishi shart;
5. Bolalar o'rtasidagi farqni tarbiyachi yoki pedagog oddiy qabul qilish tavsiya etiladi.

Pedagog olim Mixaylovaning fikricha, "musiqa – nuqsonli bolalarga ijtimoiy moslashishga yordam beradi, ularning hissiy-emotsiyasini boyitadi, o'z-o'zini ifoda etish hamda o'zini anglashni targ'ib qiladi. Musiqa mashg'ulotlari nuqsonli bolalarga musiqaning xilma-xilligini ko'rish, eshitish, his qilishga yordam beradi" [2].

Musiqaning yana bir ajoyib tomoni shundaki, bolani musiqa yordamida sog'lomlashtirishga erishish mumkin. Asosan musiqa mashg'ulotlarida nuqsonli bolalar bilan yakka tartibda ishlash ko'p muammolarni yechishining guvohi bo'ldik. Bunda, nuqsonli bolalarda uchraydigan turli ko'rinishdagi muammolar, undagi, yangi joydan qo'rqish, noma'lum kishilar bilan muloqot kabi nuqsonlarni bartaraf etishda ijobiy ahamiyat kasb etdi. Jumladan, uning nutqidagi nuqsonlarni kamaytirdi, undagi tengdoshlari bilan faol kirishuvi kuchaydi, diqqati jamlandi va xotirasi mustahkamlandi.

Shu o'rinda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliy jarayonlarida keng qo'llaniladigan musiqa o'qitish metodlarining o'ziga xos turlari xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodi – bolalarning e'tiborini tortishdir. Ushbu metodni qo'llash uchun musiqa rahbarida nutq madaniyati, chuqur nazariy bilim, tasvirlash qobiliyati bo'lishi talab etiladi. Bunda: suhbat, hikoya, aniqlik kabi metodlar bolalarga o'z fikrini bayon qilishda ijobiy natija beradi.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodi – bolalarga ushbu metod orqali turli ko'rgazmalar (cholg'u asboblari, rasmlar, kubik, kartochka va h.k.) bilan ta'lim berishimiz mumkin.

3. Amaliy o'qitish metodi – nazariy o'rgatilgan bilimlarni amalda qo'llash (kuylash, ritmik harakatlar, cholg'ularda chalish va h.k.) faoliyati.

4. O'yin metodi – didaktik va ta'limiy o'yinlar yordamida bolalarning musiqa savodxonligini oshirishga erishish mumkin. Ushbu metod yordamida bolajonlarning ijodiy fikrlashi rivojlanadi.

5. Musiqiy uquvi past yoki o'zlashtirishi sust bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi – ushbu metodda o'tilgan mashg'ulotni o'z vaqtida o'zlashtira olmagan yoki tushunmagan bolajonlar bilan yakka tartibda shug'ullaniladi.

Nuqsonli bolalar bilan yakka tartibda ishlash eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Chunki ularning aksariyat qismi yuqorida ta'kidlaganidek, tortinchoq, uyalchang, tengdoshlariga qo'shilishni hohlamaydigan bo'lishadi. Pedagog yoki tarbiyachi bu jarayonda alohida ishlaydigan bo'lsa, ular o'zlarini yanada erkin his qilib, jarayonda faol bo'lishga harakat qiladi.

Ushbu metodlarni nuqsonli hamda sog'lom bolalar bilan bir vaqtda qo'llash mumkin. Bu albatta, o'qituvchi va tarbiyachidan yuksak mahorat bilan yondashuvni talab etadi

Nuqsonli bolalar bilan ishlashda biz musiqa rahbari avvalom bor, bolajonlarning tashxisiga e'tibor berishimiz kerak. Ularning tashxisiga qarab tinglash uchun musiqa, qo'shiq, raqs tanlashimiz kerak.

“Har qanday faoliyatning harakatlantiruvchi kuchi – motivatsiya, ehtiyojdir” [5]. Shunday ekan, biz bolalarni erkalab, maqtab, o'rni-o'rni bilan rag'batlantirib turishimiz yanada ijobiy natijalar berar ekan. Bunda bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortib, bergan vazifalarni mavjud imkoniyatlari darajasida bajarishga intilishadi.

Musiqa yordamida tilida nuqsoni bor yoki duduqlanadigan bolalarni qo'shiq kuylash yordamida sog'lomlashtirish jarayoni ham amaliyotda o'zining ijobiy ta'sirini berganligining guvohi bo'lganmiz. Tilida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda biz bolaning emotsional holatini hisobga olishimiz kerak. Artikulyatsiya, ovoz, nafas olish va ritmning buzilishi nutqda turli nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Duduqlanayotgan bolalarni sog'lomlashtirish uchun qo'shiq kuylashdan foydalanish samaralidir.

Qo'shiq kuylash jarayoni, bu bolalar uchun eng qulay va sevimli faoliyat turi bo'lib, u ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi va til mushaklarining harakatini normallashtiradi [6, B.615]. Qo'shiq aytayotganda duduqlanish belgilari asta-sekin yo'qoladi.

Biz amaliy faoliyatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv-tarbiya jarayonida sog'lom va nuqsonli bolalarni inklyuziv yondoshuv orqali musiqiy ta'lim-tarbiya berishni yuqorida keltirilgan tavsiyalarni hisobga olib o'z o'rnida qo'llanganda ijobiy samara berishiga guvoh bo'ldik. Shuningdek, bu kichik izlanishimiz asnosida musiqiy tarbiya orqali nuqsonli bolalarni musiqa mashg'ulotlarida qanday uslublar bilan tarbiyalash yo'llarini ko'rsatishga harakat qildik.

Maktabgacha yoki maktab ta'limida nuqsonli bolalarga musiqiy ta'lim berish masalasi hali to'liq yoritilgan emas. Kelgusida pedagog-olimlarimiz, tadqiqotchi-o'qituvchilarimiz, yosh olimlarimiz hali mazkur mavzu doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishlariga umid bog'lab qolamiz.

IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES

1. Ibrohimov O., Xudoyev G'. Musiqa tarixi. Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Barkamol fayz media” nashriyoti. 2018. – B.312. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAAJ:4TOpqG69KYC
2. Михайлова Т.В. Музыкальное воспитание дошкольников с ОВЗ в условиях инклюзивного образования. Эл. адрес статья: <https://infourok.ru/muzykalnoe-voospitanie-doshkolnikov-s-ovz-v-usloviyah-inklyuzivnogo-obrazovaniya-6041620.html>
3. Оганян Т.Б. Педагогические технологии инклюзивного образования. -Ростов-на-Дону 2017. -С. 73. <http://konstpk.ru/inklyuzivnoe-obrazovanie/teh.pdf>.
4. Приходько О.Г., Югова О.В. Система ранней помощи детям с ограниченными возможностями здоровья и их родителям. – Москва : ООО «Деловые и юридические услуги “ЛексПраксис”», 2015. – С.145. [:http://detiirbita.ru/uploadedFiles/files/o_centre/rannyya_pomosh/Prihodko_Sistema_ranney_pomoschi_2015_early_help.pdf](http://detiirbita.ru/uploadedFiles/files/o_centre/rannyya_pomosh/Prihodko_Sistema_ranney_pomoschi_2015_early_help.pdf).
5. Хайнер Е. “Стать музыкантом? Легко или мысли о традиционном преподавании музыки, в котором нет точки опоры”. https://globalmusiceducation.com/pages/you-can-be-a-musician-all-russian?utm_source=huratips.com&utm_medium=huratips.com&utm_campaign=huratips#
6. Худоев Г.М. Развитие творческого воображения участников детского вокально-инструментального ансамбля. Science and Education 4 (1), 2022. - 611-616 P. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAAJ:RYcK_YIVTxYC
7. Худоев Г.М. Структури и фундаментальный основы вокальной пении. Science and Education 4 (1), 2022. - P. 522-529. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAAJ:NaGl4SEjCO4C
8. Худоев Г.М. Развитие вокальных навыков у детей младшего школьного возраста в процессе обучения узбекскому народному пению. Science&Education 4(1), 2022.-P.617-625. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAAJ:ISLTfruPkqcC
9. Khudoev G. Peering into culture of Ancient Bukhara. Journal of Literature and Art Studies. USA. Volume 5, Number 8 August 2015. – p. 630-633. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAAJ&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAAJ:Se3iqnhoufwC

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz